

QATAG'ON QURBONLARI XOTIRLANDI



31 avgust-qatag'on qurbanlarini yod etish kuni munosabati bilan Qo'shtepa tumani hokimi Ilyosbek Novikov bir guruh faollar ishtirokida qatag'on qurbanlari avlodlari bilan uchrashdi.

Sohibkor MFYda yashagan Xolmatjon Maxmudov 1910 yilda Qo'shtepa tumanida tug'ilgan. 1937 yilda ota-onasi bilan birga Ukrainaga qatag'on qilingan. Oradan 16 yil o'tib, 1953 yilda oqlanib o'z uylariga qaytib kelishgan. Xolmatjon Maxmudov mexanika ta'mirlash korxonasida usta temirchi bo'lib umrining oxiriga qadar mehnat qildi va 1991 yilda 81 yoshida vafot etdi.

Xolmatjon Maxmudov 1989 yilda "Mehnat faxriysi" nishoni va turmush o'rtog'i Xalimaxon Maxmudova 1995 yilda "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan. Ularning barcha farzandlari uyli joyli tinch hayot kechirmoqdalar.

Tuman rahbari Xolmatjon Maxmudov yashagan xonadonda bo'ldi. Bugun ham tarixning qora kunlari va ayanchli taqdirlar yodga olindi. Ushbu oilaga oziq-ovqat mahsulotlari va esdalik sovg'alari berildi.

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#),

2023-09-03 20:41:43